


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – Toshkent viloyatining farovonligining asosi

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanish mezoniga aylandi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini, investitsiya muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilashga yordam beradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 2404,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari (30,2%), transport xizmatlari (23,3%), moliyaviy xizmatlar (14,5%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (3,3%) ustunlik qilmoqda.

2020-yil yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2020 yil yanvar-fevral oyi uchun)

	Hajmi, mlrd. so'm	o'tgan yilga nisbatan % hisobida	Jami xizmatlar dagi ulushi%
Jami xizmatlar	2 404,1	108,7	100,000
shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	66,5	122,6	2,8
moliyaviy xizmatlar	347,7	126,3	14,5
transport xizmatlari	561,3	101,7	23,3
shu jumladan: avtotransport xizmati	542,0	102,2	22,5
yashash va ovqatlanish xizmatlari	104,3	107,8	4,3
savdo xizmatlari	725,5	102,8	30,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	80,3	100,6	3,3
ta'lim sohasidagi xizmatlar	90,8	146,5	3,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	41,3	102,3	1,7
ijara xizmatlari	75,5	105,1	3,1
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	51,4	103,9	2,1
shaxsiy xizmatlar	69,8	107,1	2,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	98,9	116,8	4,1
boshqa xizmatlar	90,9	119,6	3,8


2020 yil yanvar-fevral oyida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm





TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020 yil yanvar-fevral oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2020 yil yanvar-fevral oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha me'morchilik sohasidagi xizmatlar (116,8 %), moliyaviy xizmatlar (126,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (102,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (107,8 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari esa ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (100,6 %), transport xizmatlar (101,7 %), tashkil etdi.


2020 yil yanvar-fevral oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (92,8%) yetakchilik qilmoqda. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi. Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi. 2020 yil yanvar-fevral oyida savdo xizmatlari hajmi 725,5 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 30,2 % ni tashkil etdi.

2020 yil yanvar-fevral oyida savdo xizmatlari tarkibi, %



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsiklardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 71,4 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsiklar savdosidan tashqari) ulushi 16,9% ni tashkil etdi. Avtomobil va mototsiklar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsiklarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 11,7 % ni tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020 yil yanvar-fevral oyida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	o'tgan yilga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	o'tgan yilga nisbatan % da
Toshkent viloyati	2 404,1	108,7	100,0	823,4	107,2
shaharlar:					
Nurafshon	508,5	115,7	21,2	10 484,4	114,3
Olmaliq	141,7	101,9	5,9	1 089,1	100,5
Angren	105,6	103,1	4,4	564,6	101,8
Bekobod	92,1	102,6	3,8	969,4	101,2
Chirchiq	173,6	120,2	7,2	1 109,5	119,3
Ohangaron	41,3	103,0	1,7	1 104,0	101,1
Yangiyo'l	92,2	104,5	3,8	1 536,0	103,5
tumanlar:					
Oqqo'rg'on	55,5	102,8	2,3	532,5	101,2
Ohangaron	28,8	105,5	1,2	302,8	104,0
Bekobod	51,8	101,7	2,2	331,7	100,2



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

	Jami			Aholi jon boshiga	
	Hajmi, mlrd.so'm	o'tgan yilga nisbatan % da	Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da	ming so'm	o'tgan yilga nisbatan % da
Bo'stonliq	117,6	115,4	4,9	699,4	114,2
Bo'ka	55,4	104,8	2,3	444,7	103,1
Zangiota	169,4	104,2	7,0	863,8	103,0
Qibray	218,8	118,0	9,1	1 099,6	116,4
Quyichirchiq	34,2	104,2	1,4	319,2	102,8
Parkent	80,8	107,4	3,4	526,8	105,5
Piskent	28,4	103,7	1,2	284,5	102,3
Toshkent	118,1	101,4	4,9	659,9	100,1
O'rtachirchiq	71,5	100,6	3,0	483,0	98,9
Chinoz	58,8	101,2	2,4	443,7	99,7
Yuqorichirchiq	66,7	107,1	2,8	497,4	105,3
Yangiyo'l	93,5	103,8	3,9	448,7	102,2


Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Chirchiq (120,2%), Nurafshon shaharlari (115,6%), shuningdek Bo'stonliq (115,4%), Qibray (118,0%) va Parkent (107,4 %) tumanlariga to'g'ri keladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Eng past o'sish sur'atlari esa Bekobod tumani (100,6%) va O'rtachirchiq (100,3%) tumanlariga to'g'ri keladi. 2020 yil yanvar-fevral oyida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 823,4 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 107,2% ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar-fevral oyida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 10484,4 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,3 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Pskent tumanida 284,5 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,3 %), Ohangaron tumanida 302,8 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (104,0 %), Quyichirchiq tumanida 319,2 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (102,8 %) tashkil etdi.

2020 yil yanvar-fevral oyida hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, %



Viloyatda eng katta ulush Nurafshon (21,2 %), Chirchiq (7,2 %)shaharlari va Qibray tumani (9,1 %) ga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Ohangaron (1,2 %), Quyichirchiq (1,4 %) va Piskent (1,2%) tumanlarida kuzatildi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



Boshqa xizmatlar
5,0 %



Savdo xizmatlari
29,1 %



Shaxsiy xizmatlar
2,9 %



Transport
xizmatlari
23,3 %



Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari
2,8 %



Moliyaviy
xizmatlari
14,5 %



Ta'lim
sohasidagi
xizmatlar
3,8 %



Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari
4,3 %



Kompyuterlar va
maishiy tovarlarni
ta'mirlash bo'yicha
xizmatlar
2,1 %



Ko'chmas mulk
bilan bog'liq
xizmatlar
3,3 %



Sog'liqni
saqlash
sohasidagi
xizmatlar
1,7 %



Me'morchilik
muhandislik
izlanishlari, texnik
sinovlar va tahlil
sohasidagi
xizmatlar
4,1 %




Ijara xizmatlari
3,1 %



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-fevral oyida jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, %



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi Oqqo'rg'on (98,5 %), Pskent (98,5), tumanlarida va Yangiyo'l (97,9 %) shahrida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (6,2 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel:(71)230-86-74